



O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTLARINING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLINI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI

PhD, dots. **Bahriddinov Viqorjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi

ORCID: 0000-0002-9169-5316

v.bahriddinov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla institutlarining bandlikni ta'minlashdagi amaliy roli, mavjud tashkiliy va institutsional mexanizmlarning samaradorligi hamda ularni takomillashtirish zarurati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mahalla kesimida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari mahalla faoliyatining ustuvor yo'nalishlari orasida bandlik masalasining yetarli darajada markazlashmaganini va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tashabbuslarning tizimlashtirilmaganligini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida mahalla institutlarining diagnostika, kasbga tayyorlash, o'z-o'zini band qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilish va monitoring kabi funksiyalarni integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantirish bo'yicha institutsional-tashkiliy mexanizm ishlab chiqildi. Taklif etilgan mexanizm mahalla boshqaruvining bandlikni ta'minlashdagi salohiyatini kuchaytirishga, uy xo'jaligi bizneslarini rivojlantirishga hamda hududiy mehnat bozorini jonlantirishga xizmat qiladi.

Kleit so'zlar: mahalla instituti, bandlikni ta'minlash, o'z-o'zini band qilish, tashkiliy mexanizm, institutsional yondashuv, kasbga tayyorlash, hududiy mehnat bozori, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, monitoring tizimi.

НАПРАВЛЕНИЯ УСИЛЕНИЯ РОЛИ ИНСТИТУТОВ МАХАЛЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD, доц. **Бахриддинов Викоржон**

Ташкентский государственный экономический университет,
Центр институциональных и экономических исследований

Аннотация. В статье анализируется практическая роль институтов махалли в обеспечении занятости, оценивается эффективность существующих организационных и институциональных механизмов, а также обосновывается необходимость их совершенствования. Результаты опроса, проведённого на уровне махалли, показали, что вопрос занятости недостаточно выделен среди приоритетных направлений деятельности махалли, а реализуемые инициативы остаются несистемными. В рамках исследования разработан интегрированный институционально-организационный механизм, направленный на усиление функций махалли по диагностике, профессиональной подготовке, поддержке инициатив по самозанятости, мобилизации финансовых ресурсов и мониторингу. Предложенный механизм ориентирован на повышение институционального потенциала махаллинского управления в сфере содействия занятости, развитие домашних форм предпринимательства и активизацию местного рынка труда.

Ключевые слова: институт махалли, обеспечение занятости, самозанятость, организационный механизм, институциональный подход, профессиональная подготовка, местный рынок труда, финансовая поддержка, система мониторинга.

DIRECTIONS FOR STRENGTHENING THE ROLE OF MAHALLA INSTITUTIONS IN ENSURING EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN

DSc, assoc. prof. **Bahriddinov Viqorjon**
Tashkent State University of Economics,
Center for Institutional and Economic Research

Abstract. This article examines the practical role of mahalla institutions in promoting employment, evaluates the effectiveness of existing organizational and institutional mechanisms, and substantiates the need for their improvement. The survey conducted at the mahalla level reveals that employment remains insufficiently prioritized among the main areas of mahalla activity, and current initiatives lack systematization. Within the study, an integrated institutional–organizational mechanism was developed to strengthen the functions of mahalla institutions across diagnostics, vocational training, support for self-employment initiatives, mobilization of financial resources, and monitoring. The proposed mechanism is aimed at enhancing the institutional capacity of mahalla governance in employment promotion, supporting household-based entrepreneurship, and revitalizing local labor markets.

Keywords: mahalla institution, employment promotion, self-employment, organizational mechanism, institutional approach, vocational training, local labor market, financial support, monitoring system.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va institutsional o'zgarishlar mehnat bozorining to'laqonli modernizatsiyasini, aholining barqaror bandligini ta'minlashni hamda kambag'allikni qisqartirishni davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllantirdi. Mehnatga layoqatli aholining yil sayin ortib borayotgani, demografik yuklamaning kuchayishi, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi mavjud sharoitda bandlik masalalarini mahalla darajasida yanada samarali boshqarishni taqozo etmoqda. Chunki aholining kundalik turmushi, daromadlari, ehtiyojlari va ishsizlik bilan bog'liq holatlar avvalo mahalla miqyosida yaqqol seziladi. Shu bois mahalla instituti mehnat bozoridagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda eng quyi, ammo o'ta muhim boshqaruv bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi.

Mahalla fuqarolar yig'inlari O'zbekistondagi ijtimoiy boshqaruvning o'ziga xos milliy modeli bo'lib, aholi bilan eng yaqin muloqotda ishlaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni joyida biladigan va real ma'lumotlarni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan institut hisoblanadi. Shu sababli mahalla tizimining bandlik siyosatidagi funksiyalarini mustahkamlash, uning vakolat doirasini kengaytirish va mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifasiga aylanib bormoqda. Aholi bandligini oshirish masalasiga oid davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda alohida belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-avgustdagi "Mahalla tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6211-son Farmonida mahallalarda bandlik holatini o'rganish, ishsizlar ro'yxatini doimiy yangilab borish va ularni ishga yo'naltirishda mahalla faollarining mas'uliyati kuchaytirilishi belgilangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida mahalla darajasida kambag'allikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining kasbga tayyorlanishi va "ko'nikma-

bandlik-daromad” tizimini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-maydagi “Aholini kambag'allikdan chiqarish va bandlikni ta'minlashning yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-101-son Farmonida “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” va “Temir daftar” orqali ehtiyojmand fuqarolarni aniq ro'yxatga olish, ularni kasbga yo'naltirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda bandlik tizimini mahalla darajasida kuchaytirish vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda “Mahallani rivojlantirishning 2023–2026-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-81-son Farmonida mahalla tizimini raqamlashtirish, aholining bandlik ehtiyojlari bo'yicha elektron reyestrlarni shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari bazasini yaratish va ushbu jarayonlarni yagona axborot tizimiga integratsiya qilish kabi dolzarb vazifalar ilgari surilgan.

Shu bilan birga, amaliy holat shuni ko'rsatmoqdaki, mahalla darajasida bandlikni ta'minlash salohiyati mavjud bo'lsada, uning to'liq ishga solinishi uchun zarur bo'lgan tizim va mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan. Ma'lumotlar bazasining tizimlashtirilmaganligi, bandlik markazlari va tijjoriy va boshqa muassasalar bilan hamkorlikning izchil yo'lga qo'yilmaganligi, uy xo'jaliklari mehnati va mikrobiznesni rivojlantirishga oid mahalla tashabbuslarining sustligi hamda bandlik bo'yicha monitoring va reyting mexanizmlarining yetarli ishlamasligi bunga misol bo'la oladi.

Shu sababli mahalla institutlarining bandlik jarayonlaridagi o'rnini kuchaytirish mehnat bozoridagi hududiy tafovutlarni yumshatish, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omilga aylanishi mumkin. Ushbu maqola mazkur masalalarni ilmiy asosda o'rganish, mahalla tizimining amaldagi imkoniyatlarini tahlil qilish va ularning bandlik siyosatidagi rolini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston ilmiy makonida mahalla institutining bandlikni ta'minlashdagi o'rni turli nuqtayi nazarlarda o'rganilib kelinmoqda. Nizametdinov (2025) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, muallifning tadqiqotlariga ko'ra, ushbu dasturlar ishsizlikning kamayishiga, aholi daromadlarining barqarorlashuviga va ijtimoiy barqarorlikning kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, Nizametdinov o'z izlanishlarida dasturlarning uzoq muddatli barqarorligi, norasmiy sektordagi faoliyatni rasmiylashtirishdagi institutsional to'siqlar kabi masalalar hali yetarli darajada o'rganilmaganini ta'kidlaydi. So'nggi yillarda bandlik siyosatida markaziy o'rin egallagan “mahallabay” tizimning amaliy va nazariy asoslari ham mahalliy ilmiy jamoatchilik tomonidan faol o'rganilmoqda. Muzaffarov (2025)ning fikricha, mahallabay yondashuv aholi bandligini oshirish bo'yicha yangi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirgan bo'lib, uning samaradorligi davlat idoralari, mahalla rahbarlari va jamoatchilik o'rtasidagi tizimli hamkorlikka bevosita bog'liq. Muallif tizimni raqamli boshqaruv bilan integratsiya qilish zarurligini ham alohida ta'kidlaydi, biroq tadqiqotning miqdoriy asoslari cheklangan.

Mahallabay tizimning turmush darajasiga ta'sirini ekonometrik modelashtirish orqali baholagan Muminovning (2024) xulosasiga ko'ra, tizim kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirishda sezilarli ijobiy natijalar beradi, ammo ushbu ta'sir hududlar kesimida notekis namoyon bo'ladi. Muminovning modelida statistik bog'liqliklar aniqlangan bo'lsa-da, ijtimoiy-psixologik yoki madaniy omillar inobatga olinmagan. Hududiy tadqiqotlar ichida Jo'rayeva va boshq. (2025) mahallaning investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va bandlikni oshirishdagi rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi, biroq ularning tahlillari ko'proq konseptual yondashuvlarga tayanadi. Rasulov (2023) esa fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi boshqaruvning samaradorligini baholash masalalariga e'tibor qaratgan. Muallif asosan ushbu tizimning samaradorligini baholashda uchta uslubiyatni taklif etgan. Birinchisi statistik tahlil usuli bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish nazarda

tutilgan. Ikkinchi usul ekspert baholash usuli bo'lib, unga ko'ra ekspertlar tomonidan mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligi mezonlarini orqali baholashni o'z ichiga oladi. Uchinchi usul esa jamoatchilik baholash usuli bo'lib, u turli ijtimoiy so'rovnoma orqali jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi (Lola va O'ktamovich, 2025). Berkinov (2024) esa mahalla hududida kambag'allikni qisqartirish masalalariga e'tibor qaratgan bo'lib, tadqiqotda "yashash minimumi", "iste'mol savatchasi" kabi mezonlar kambag'allikni ifodalovchi asosiy indikatorlari sifatida foydalanilgan. Muallifga ko'ra mahalla hududida kambag'allikni qisqartirishning eng zarur shartlardan biri sifatida kichik, o'rta va yirik hududlar atrofida agrosanoat klasterlari guruhlarini tashkil etish va ishsizlar hamda aholining ehtiyojmand qatlamini unga jalb etish zarur. Shu bilan birga, mahalla faoliyatiga oid Berkinov (2024) ning yana bir tadqiqoti mahalla hududida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi tahlili va prognoziga qaratilgan bo'lib, muallifning xulosasiga ko'ra so'nggi yillarda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi o'sgan. Shuningdek, 2023-yilda o'r-tacha bitta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi prognozi minimum iste'mol va tabiiy rasional me'yorlarga mos keladi. Abdullaxojaevich (2024) esa mahalla byudjeti daromadlari manbaini kengaytirish orqali mahalla faoyiyati samaradorligini oshirish masalalarini o'rgangan. Muallifga ko'ra, mahalla byudjeti daromadlari oshishi va mahallalarning iqtisodiy rivojlanishi mahallalarga birlashtirilgan soliq inspektori faoliyatiga bog'liq.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalla institutining u yoki bu yo'nalishlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar yetarlicha bo'lsada, tadqiq etilishishi zarur bo'lgan yo'nalishlar hali ham mavjud. Xususan, mahallabay bandlik dasturlarining samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish, bandlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish, mahalla rahbarlarining iqtisodiy savodxonligini oshirish jarayonlarini ilmiy asoslash hamda norasmiy bandlikni rasmiylashtirishning institutsional mexanizmlarini chuqur tahlil qilish kabi masalalar keyingi tadqiqotlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi gipotezaning nazariy hamda amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Unda tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, sabab va oqibat bog'liqliklarini tahlil qilish, qiyosiy yondashuv, taqqoslama tahlil hamda ijtimoiy so'rovnoma kabi ilmiy-uslubiy vositalardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Mahalla kesimida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari mahalla institutlarining bandlikni ta'minlashdagi amaliy mexanizmlari hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatdi. Xususan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan bizga ayyon bo'ldiki, mahalla institutlarining banklikni ta'minlashdagi ahamiyati ancha sust (1-rasm). Natijalar ko'rsatmoqdaki, mahalla faoliyatining amaldagi ustuvor yo'nalishlari bandlikni ta'minlashga ko'maklashish masalasini yetarli darajada markazga olib chiqa olmagan. Tahliliy tasnif shuni ko'rsatadiki, bandlik yo'nalishiga 25 foiz ulush to'g'ri kelganiga qaramay, mahalla resurslarining asosiy qismi ijtimoiy yordamga 18 foiz, yoshlar bilan ishlashga 24 foiz, obodonlashtirishga 19 foiz hamda xavfsizlik va profilaktika faoliyatlariga 12 foiz darajasida yo'naltirilmoqda. Resurslarning bunday tarqoqligi bandlik siyosatining tizimli hamda barqaror amalga oshirilishini cheklaydi, chunki mazkur yo'nalishlar bandlikning uzoq muddatli iqtisodiy natijalarini kuchaytirishga xizmat qilmaydi. Yoshlar bilan ishlash ko'rsatkichi yuqori bo'lishiga qaramay, bu faoliyatning bandlik siyosati bilan yetarlicha integratsiya qilinmagani sababli ushbu yo'nalish mehnat bozoriga real kirish imkoniyatlariga aylanmayapti. Xavfsizlik-profilaktika faoliyatlari ulushining sezilarli darajada bo'lishi esa mahalla rahbarlarining vaqt va e'tiborini iqtisodiy faollikni kuchaytirishga

qaratilgan tashabbuslardan chalg'itmoqda. "Boshqa" yo'nalishlarning atigi 2 foizni tashkil etishi mahallada innovatsion tashabbuslarning, xususan, iqtisodiy faollikni canlandiruvchi yangi mexanizmlarning deyarli shakllanmaganini ko'rsatadi.



1-rasm. "Mahalla institutlarining qaysi yo'nalishlarda faoliyatini kuchaytirish kerak deb hisoblaysiz?" mazmunidagi savol natijasi

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mahalla institutlari bandlikni bevosita yaratish vakolatiga ega bo'lmasa-da, ular bandlikka ko'maklashish orqali muhim iqtisodiy rolni bajarish salohiyatiga ega: tegishli fondlar hisobidan uy xo'jaliklarida kichik tadbirkorlik boshlash uchun boshlang'ich yordamlar ajratish, o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlash kabi tashabbuslar orqali ishsiz aholining iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Biroq bu jarayonning aniq tashkiliy mexanizmi qanday shakllanadi? Mazkur savolning batafsil tahliliga quyida to'xtalib o'tamiz (2-rasm).



2-rasm. Mahalla institutlarining bandlikni ta'minlashdagi institutsional-tashkiliy mexanizmi

Manba: muallif ishlanmasi.

“Mahalla institutlarining bandlikni ta’minlashdagi institutsional-tashkiliy mexanizmi” mazmuni mahalla darajasida bandlikni qo’llab-quvvatlash jarayoni ko’p bosqichli, funksional jihatdan differensiallashgan va institutsional jihatdan o’zaro bog’langan tizim sifatida shakllanganini ko’rsatadi. Ushbu mexanizmning markazida bevosita o’z-o’zini band qilishga intilayotgan ishsiz aholining joylashtirilishi mahalla boshqaruv tizimining asosiy diqqat markazi - ya’ni aholining iqtisodiy faolligini oshirish va ularni mehnat bozoriga qayta integratsiya qilish - tizimning bosh maqsadi sifatida belgilanganini anglatadi. Chap qanotda joylashgan bloklar mahalla institutining diagnostika, ehtiyojlarni aniqlash va ko’nikmalarni shakllantirishga qaratilgan funksional blokini tashkil etadi. Aholining o’z-o’zini band qilish ehtiyojlarini o’rganish hamda ro’yxatga olish, ishsizlarni kasbga yo’naltirish va kasbiy tayyorlov dasturlarini ishlab chiqish, uy-mehnati faoliyatini rasmiylashtirish bo’yicha huquqiy-maslahat tizimini takomillashtirish - bularning barchasi bandlikka oid chora-tadbirlarning maqsadli segmentatsiya qilinishi va individuallashtirilgan yondashuvga o’tilishiga zamin yaratadi. Ushbu blok mahalla institutining bandlik siyosatida faqat ro’yxat yurituvchi emas, balki real ehtiyojlar asosida yo’naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytiradi. O’ng tomondagi bloklar mahalla darajasida shakllanayotgan moliyaviy, ekspert va tashkiliy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini aks ettiradi. Mahalla budjeti va tegishli fondlar imkoniyatlarini baholash, tadbirkorlar va soha mutaxassislarini jalb etish, maslahatchi va treyting klublarini yo’lga qo’yish, uy xo’jaliklari tashabbuslarini ishlab chiqish bo’yicha komissiya tuzish - bularning barchasi mahalla tizimining ijtimoiy sheriklik modeli asosida faoliyat yuritayotganini ko’rsatadi. Bu institutlar bandlikni oshirishda xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va mahalla boshqaruvi o’rtasida barqaror kooperatsiyani shakllantiradi. Mexanizmning pastki qismida joylashgan monitoring va tahlil bosqichi mazkur tizimning natija-yo’naltirilgan boshqaruv modeliga asoslanishini bildiradi. O’z-o’zini band qilish faoliyatining monitoringi orqali samaradorlikni baholash, indikatorlar o’rtasidagi o’zgarishlarni kuzatish va zarur hollarda choralarni qayta ko’rib chiqish imkoniyati yaratiladi. Ushbu bosqich mexanizmning barqarorligini ta’minlab, qarorlar qabul qilish jarayonini dalillarga asoslangan yondashuvga moslashtiradi.

Umuman olganda, tasvirlangan mexanizm mahalla institutlarining bandlikni ta’minlash sohasidagi an’anaviy ma’muriy funksiyalaridan chiqib, ularni ko’p funktsiyali, ko’p subyektli, institutsional jihatdan integratsiyalashgan hududiy mehnat bozori boshqaruv tizimiga aylantirayotganini ko’rsatadi. Bu mexanizm diagnostika, o’qitish, konsultativ ko’mak, moliyaviy resurslarni safarbar qilish va monitoring kabi bosqichlarning uzviy bog’lanishi orqali mahalla darajasida iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatdiki, mahalla institutlarida bandlikni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-amaliy faoliyat bo’lsada, ushbu jarayonning institutsional asoslari yetarlicha shakllanmagan, resurslarning tarqoqligi esa bandlik siyosati samaradorligini cheklab qo’yimoqda. So’rovnoma natijalari mahalla faoliyatining ustuvor yo’nalishlari orasida bandlik masalasi ikkinchi darajada qolayotganini, mavjud tashabbuslarning esa tizimlashtirilmagan holda amalga oshirilayotganini ko’rsatadi. Tahlil shuni asoslab beradiki, mahalla institutlari bandlikni bevosita yaratish vakolatiga ega bo’lmasada, ular ishsizlar ehtiyojini aniqlash, kasbga tayyorlash, ko’nikmalarni shakllantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash va moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali hududiy mehnat bozorini jonlantirishda muhim halqa hisoblanadi. Mahalla darajasida ishlab chiqilgan institutsional-tashkiliy mexanizm mazkur jarayonni diagnostika, o’qitish, ekspertiza, moliyaviy qo’llab-quvvatlash va monitoring kabi bosqichlar orqali ko’p subyektli, integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga aylantirish imkonini beradi. Biroq ushbu mexanizmning to’liq ishlashi uchun hududiy iqtisodiy resurslarni mahalla faoliyatiga bog’lovchi qo’shimcha institutsional islohotlar zarur. Bu borada quyidagilar zarur deb hisoblaymiz:

1. *Mahalla kesimida bandlik ehtiyojlarini aniqlash va ro'yxatga olishning yagona raqamli tizimini joriy etish lozim.* Mazkur taklif mexanizmning chap qanotidagi bosqichlarni – ehtiyojlarni o'rganish, ishsizlarni aniqlash va kasbga yo'naltirishni – amalda ishlaydigan tizimga aylantiradi. Har bir mahallada aholi bandlik profili muntazam shakllantiriladigan, o'z-o'zini band qilish salohiyati, mavjud ko'nikmalar, bo'sh ish o'rinlari va uy-mehnat imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan raqamli reyestr joriy etilishi lozim. Bu reyestr diagnostika natijalarini tizimlashtirib, kasbga o'qitish dasturlarini rejalashtirish, mikro-loyihalarni tanlash va mahallaning iqtisodiy yo'nalishlarini belgilashda asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Raqamli reyestrning joriy etilishi mexanizmning barcha bosqichlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi va resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

2. *Uy xo'jaligi biznes tashabbuslarini baholash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahalla ekspert komissiyasini tashkil etish lozim.* Mexanizmning o'ng qanotidagi moliyaviy, ekspert va tashkiliy qo'llab-quvvatlash bosqichlari amaliyotga tatbiq etilishi uchun mahalla darajasida doimiy faoliyat yurituvchi ekspert komissiyasi tuzilishi zarur. Ushbu komissiya tadbirkorlar, iqtisodiy mutaxassislar, mikro-moliyalashtirish tashkilotlari vakillari va mahalla yetakchilaridan iborat bo'ladi. Komissiya uy xo'jaligi biznes tashabbuslarini iqtisodiy samaradorlik, rentabellik, xatar darajasi va resurs ta'minoti bo'yicha ekspertizadan o'tkazadi, mikro-moliyalashtirish miqdorini belgilaydi va loyiha egalarini realizatsiya jarayonida maslahatli qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur komissiyaning joriy etilishi mikro-loyihalarning tasodifiy tanlanishining oldini olib, mexanizmning moliyaviy blokining shaffof va natija-yo'naltirilgan ishlashini ta'minlaydi.

3. *Mahalla darajasida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashning modulli o'quv dasturlarini joriy etish zarur.* Tahlil shuni ko'rsatdiki, yoshlar bilan ishlash yo'nalishida bandlik siyosati bilan integratsiya sust, mavjud o'quv tashabbuslari tizimli emas. Shu sababli mahallada bandlik mexanizmining "o'qitish va ko'nikma shakllantirish" bosqichini amaliy ishlaydigan tizimga aylantirish uchun modullar asosidagi qisqa muddatli kasbga tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish lozim. Bunda o'quv dasturlari mahalla reyestrda aniqlangan ehtiyojlar asosida shakllantiriladi va o'quv jarayoniga tadbirkorlar va soha mutaxassislari jalb qilinadi. Bu yondashuv ishsiz aholini mehnat bozoriga tez integratsiya qilish, o'z-o'zini band qilish tashabbuslarini kuchaytirish hamda mexanizmning chap qanoti bilan o'ng qanoti o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

4. *Mahalla darajasida o'z-o'zini band qilish faoliyatini muntazam baholovchi indikatorlar asosidagi monitoring tizimini joriy etish zarur.* Tahlil natijalariga ko'ra, mahallalarda bandlik siyosati natijalari bo'yicha tizimli monitoring mavjud emas, bu esa tashkiliy mexanizmning barqaror ishlashini cheklaydi. Shuning uchun mexanizmning quyi bosqichini amalda shakllantirish uchun indikatorlar asosidagi monitoring tizimi yaratish zarur. Unda o'z-o'zini band qilganlar soni, yaratilgan mikro-loyihalar barqarorligi, daromad dinamikasi, faoliyat turlarining kengayishi, ayollar va yoshlar bandligi ulushi kabi ko'rsatkichlar belgilab boriladi. Monitoring natijalari mexanizmning keyingi bosqichlarini optimallashtirish, resurslarni qayta taqsimlash va samaradorligi past yo'nalishlarni qisqartirish imkonini beradi. Bu yondashuv mexanizmni "dalillarga asoslangan bandlik boshqaruvi" tamoyiliga moslashtiradi.

O'ylaymizki, ushbu chora-tadbirlarni amaliyotga izchil tatbiq etish mahalla institutlarining bandlikni ta'minlashdagi institutsional salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Natijada bandlik ehtiyojlari aniq segmentatsiya qilinadigan, kasbga qayta tayyorlash jarayonlari maqsadli yo'naltiriladigan, mikro-loyihalar shaffof baholangan holda moliyalashtiriladigan va o'z-o'zini band qilish jarayonlari muntazam monitoring asosida boshqariladigan yangi mahalla modeli shakllanadi. Bu esa mahalla darajasida mehnat bozorining jonlanishiga, aholi daromadlari o'sishiga, uy xo'jaligi bizneslarining ko'payishiga hamda mahallalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Achildiyev, F. (2024). Mahallabay tizim doirasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ishsizlikni kamaytirish mexanizmlari. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*. Vol. 7 No. 6 (2024) pp 211-216.

Lola, J. R., & O'ktamovich, R. S. (2025). Mahalla institutining iqtisodiyotdagi o'rni: ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi strategiyalar. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 3(3), 64-68.

Muminov, F. (2024). Hududlarda mahallabay ishlash tizimi asosida aholi turmush darajasini oshirishni ekonometrik modellashtirish. In *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp150-158>

Muslimbek Muzaffarov (2025). Mahallabay ishlash – aholi bandligini ta'minlashning asosiy vositasi sifatida. (2025). *International journal of science and technology*, 2(1), 51-56. <https://doi.org/10.70728/jgqge328>

Nizametdinov Ali Akramovich. (2025). Factors for assessing the self-employment of the population in the neighborhood. *Labor Economics and Human Capital*, 4(3), 46–56. <https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/122>

Otabek Rasulov (2023). O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash masalalari. *qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8, 70-73.7.

Беркинов, Б. (2024). Маҳалла ҳудудда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили ва прогнози. *Economics and Innovative Technologies*, 12(2), 245-252.9.

Беркинов Б. (2024). Маҳалла ҳудудда камбағалликни бартараф этиш йўллари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(1), 310-317.8.